TARIX

UDK: 94(571.1)"18/19":35.3 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a39

MANG‘ITLAR SULOLASI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI

ГОСУДАРСТВЕННАЯ АДМИНИСТРАЦИЯ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ ВО ВРЕМЯ ДИНАСТИИ МАНГИТА

STATE ADMINISTRATION IN THE BUKHARA EMIRATE DURING THE MANGIT DYNASTY

Mirzaqulov Beshim Tangriyevich[1]

[1]**Mirzaqulov Beshim Tangriyevich** – Buxoro muhandislik texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya

Ushbu maqolada XVIII-asr o‘rtalaridan XX-asr boshlarigacha Buxoroda davlat hokimiyatini nazorat qilgan mang‘itlar sulolasi vakillari davlat boshqaruv tizimi, davlatning ichki va tashqi siyosati, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari o‘rganildi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, soliqlar, savdo va elchixona munosabatlari haqida tegishli xulosalar va ma'lumotlar berildi.

Аннотация

В данной статье представители династии Мангитов, управлявших государственной властью в Бухаре с середины XVIII до начала XX века, рассматриваются система государственного управления, внутренняя и внешняя политика государства, отношения с соседними странами изучено социально-экономическое положение народа, налоги, торговые и посольские отношения и даны соответствующие выводы.

Abstract

In this article, repesentatives of the Mangit dynasty, who ruled the state power in Bukhara from the middle of the 18th century to the beginning of the 20the century, the system of state administration, the internal and external policy of the state, relations with neighboring countries, the social and economic condition of the people, taxes, trade and embassy relations are studied and relevant conclusions are given.

Kalit so‘zlar: *Buxoro amiligi, mang‘itlar sulolasi, davlat boshqaruvi tizimi, amir, xon, qo‘shbegi, otaliq, yuzboshi, mingboshi, amin, qorovulbegi.*

Ключевые слова: *Династия, правительство, хан, эмир, губерния, округ, правитель, политика, система управления, посольские отношения, торговля, налог.*

Key words: *Dynasty, government, khan, emir, province, district, governor, policy, the system of administration, embassy relations, trade, tax.*

KIRISH

Mang‘itlar sulolasi hukmronligi (1756-1920)–yillarida Buxoro amirligida davlat boshqaruvida oldingi sulolalar (shayboniylar, ashtarxoniylar) davridagi boshqaruv tizimi davom etgan. Sulola asoschisining xon avlodidan bo‘lmaganligi sababli amirlik va amir hokimiyati vujudga keladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Buxoro amirligining davlat boshqaruvi tarixi, ayniqsa, markaziy va mahalliy boshqaruvida amaldorlarning ishtiroki, ular faoliyatining huquqiy asoslari hamda markaziy va mahalliy boshqaruvning o‘zaro munosabatlari muhim tarixiy manbalarning mavjudligiga qaramasdan, ilmiy jamoatchilik tomonidan yetarlicha o‘rganilmagan. Sobiq sho‘ro davri adabiyotlarida bunday masalalar bir tomonlama, hukmron mafkura manfaatlari va talablari nuqtai nazaridan yoritilgan edi. Binobarin, milliy davlatchiligimiz tarixini o‘rganishga jiddiy e’tibor berilayotgan hozirgi kunda Buxoro amirligining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari, oliy tabaqa amaldorlar va quyi ma’muriy birliklar mansabdor shaxslari hamda harbiy – ma’muriy va diniy amaldorlarning davlat boshqaruvidagi o‘rniga doir ilmiy asarlarga ehtiyoj kattadir. Buxoro amirligida yetakchi urug‘lari, xususan, mang‘it urug‘i zodagonlari hukmron tabaqaning asosiy tayanchi bo‘lib xizmat qilgan. Davlatdagi eng oliy harbiy – ma’muriy amaldorlar, mahalliy boshqaruvdagi asosiy mansabdorlar mang‘it urug‘idan bo‘lgan kishilardan tayinlangan. Shu bilan birga, bu davrda mang‘itlar va boshqa o‘zbek urug‘lariga mansub bo‘lmagan kishilarning ham davlat boshqaruvida yuqori amallarni egallash holati ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda davlatda

amirdan keyingi ikkinchi o‘rinda turadigan qushbegi mansabiga forslar orasidan tayinlangan kishilarning borligga ham e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi. [1,2].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Buxoro amirligida oliy hukmdor amir hisoblanib, ijro etuvchi hokimiyat qo‘shbegi qo‘lida to‘plangan edi. Mang‘itlar sulolasi davrida amirdan keyingi oliy mansab egasi qo‘shbegi bo‘lib, unga barcha viloyatlar va bekliklarning hokimlari, beklari bo‘ysungan hamda amir poytaxtda bo‘lmagan vaqtida u amirlikning barcha ishlarini bajargan.

Buxoro qozi kaloni Sadri Ziyo – Muhammad Sharifjon ibn qozi Abd ush-Shakur o‘zining esdaliklarida Buxorodagi amal va unvonlar hamda ular egalarining vazifalari haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi.

Otaliq – Buxoro suvi Samarqanddan to Qorako‘lgacha va barcha tumanlarning sug‘orilishi va suvining taqsimoti uning ixtiyoridadir. Buxoroning boshqaruvi Doniyolbiyga o‘tganidan so‘ng otaliqning zimmasiga shunday vazifa yuklatilgan. Shuningdek, unga Buxoro atroflarini kechasi nazorat qiluvchi mirshab boshlig‘i – dorug‘a lavozimi ham topshirilgan.

Devonbegiyi kalon – asosiy vazifasi viloyat xirojini barcha mas’ul amaldorlar va boshqalardan olish bo‘lgan. Uning nazoratida viloyatlardan olinadigan naqd pul to‘shakxona mehtariga berilib, amlokdorga beriladigan g‘alla esa devonxona va tanobona daftari hisobidan keyin kirim qilingan. Qorako‘lning mirobligi ham uning vazifasiga kirgan.

Parvonachi – oliy hukmdorning umaro, ulamo va barcha odamlarga qilingan oliy buyruqlari, imzolangan farmon va ko‘rsatgan marhamatlari u orqali egalariga yetkazilgan. Bundan tashqari mang‘itlar davrida arablar toifasining boshqaruvi ham unga tegishli bo‘lgan.

Dodxoh – shikoyatchilar va da’vogarlarning arzlarini amirga yetkazib, javobini ularga topshirgan.

Ko‘kaldosh – viloyat ishlaridan, do‘stu dushmandan xabardor bo‘lish, josuslik ishlarini nazorat qilish uning zimmasida bo‘lgan.

Inoqi kalon – podshoh tomonidan amir bo‘lmagan shaxslar va shogirdpeshalarga beriladigan mansab va amallar xabarini egalariga yetkazgan.

Inoqi xurd – biror ariza yoki elchining xati saroyga kelsa uni ochib, amirning roziligi bilan munshiy (kotib)ga baland ovoz bilan o‘qish uchun bergan.

Mehtari kalon – uning vazifasi zakot, musulmonlarning ushiri (dahyak-o‘ndan bir solig‘i)dan to‘rtini, musulmon bo‘lmaganlar ushirining yarmini, harbiylarning ushirini, mol va naqd pullar, chorva va topib olingan egasiz narsalarni o‘z egalariga topshirishdan iborat bo‘lgan.

Devoni sarkor – sulton yerlari, tegirmon va podsholik do‘konlarini foydalanishga va ijaraga berib, kirim-chiqimi haqida xos sarkorga hisobot bergan. Sulton harami, xazinasi, ko‘rinish vaqtidagi taom va shunga o‘xshash xarajatlar unga tegishli bo‘lgan.

To‘pchi boshiyi kalon – to‘pxona (artilleriya) ishlariga, kutvol, ya’ni sulton imoratlari va qurilishlariga mutasaddi bo‘lgan amaldor.

Eshikoqoboshi – saroy otlarining nazorati va Shopurkom tumani boshqaruvi (hokimligi) unga tegishli bo‘lgan.

To‘qsoba – podshoh dasturxonidagi tavoqlar va idishlarni joylashtirish vazifasi va Xarqonrud (G‘ijduvon) tumani boshqaruvi unga tegishli bo‘lgan.

Miroxo‘ri kalon – podshoh jilovida yurib, uning o‘ng va chap tomonida kapalakdek aylanib xabardor bo‘lib yurish (zamonaviy xos soqchi) va Komi Abu Muslim (Vag‘onze) tumani boshqaruvi va mirobligi uning vazifasiga kirgan.

Amirlikdagi sud hokimiyati, ya’ni qozilik ishi o‘ziga xos tashkil etilib, bunday lavozimga ulamo va sodot (sayyidlar) tayinlangan va ular hokimlarga tenglashtirilgan. Bular – shayxulislom, qozi ul-quzzot, qozi askar va voliyi askariya.

Viloyatlarga qozi, rais, madrasalarga mudarris, masjidlarga imom tayinlash Buxoro qozikalonining vazifasiga kirgan [3].

Amir Olimxon davrida raislik lavozimini Abdullaxo‘ja, Abdusamadxo‘ja va Izomiddinlar egallashgan. Buxoro amirligida o‘rnatilgan tartibga ko‘ra viloyatlar hokimlari va qozilari haftada bir marta mamlakatning ahvoli yuzasidan amirga rasman arz etardilar. Arizani amir saroyiga olib kelgan arizachi uning javobi chiqmagunichaqaytib keta olmas va ushbu javobni kutib o‘tirishi shart edi.

XIX asr boshlarida amirlik saroyida xizmatkor amaldorlar tabaqasi shakllanib, faqat amir saroyining o‘zida 300 ga yaqin amaldor xizmat qilar, davlat xazinasidan maosh olib, amirga batamom qaram edi. Mahalliy boshqaruv tizimida esa 30 mingga yaqin amaldor xizmat qilib, hokim va uning amaldorlariga davlat xazinasida maosh berilmas, ular xalqdan yig‘ib olingan soliq, yig‘im, to‘lovlar hisobidan kun kechirardi. Hokim, soliq yig‘uvchi va qozilarning faoliyatini belgilovchi aniq qonun –qoida bo‘lmagan. Amirlikda Jo‘ybor Shayxlari alohida mavqega ega bo‘lib, XIX asrda ular Buxoroda 16 mahalla bo‘lib yashardi [4].

Buxoro tarixchisi Abdurahmon Tomkinning yozishicha, yaqin o‘tmishda 80 ta aholi punkti (manzili) dan bitta tuman tashkil etilgan. Keyinchalik tumandagi aholi punktlari miqdori ortib borib, 1916-yilga kelib bir tumandagi aholi punkti 120-140 tani tashkil etgan [5].

Buxoro bekligi (viloyati) tarkibidagi tumanlarning boshqaruvi o‘ziga xos shaklda bo‘lib, keyingi yillarda Shofurkom tumani boshqaruvi eshikoqoboshiga, Harqonrud (G‘ijduvon) tumani boshqaruvi to‘qsaboga, Komi Abu Muslim (Vag‘onze) tumani boshqaruvi miroxuri kalonga yuklatilgan. Odatda tumanlarning boshqaruvi tuman hokimi (amlokdori) orqali amalga oshirilgan. Tumanliklarga amlokdorlar amir tomonidan tayinlanardi. Mang‘itlar davrida, 1852-yilda Shohruxxon ibn Ibrohimxonni, 1856-yilda Shahrisabz beki Iskandar vallomani Qorako‘l tumaniga hokim qilib yuborilgani ma’lum. Buxorodan boshqa bekliklardagi amlokdor beklik hokimi tomonidan tayinlanib, unga bo‘ysunardilar. XIX-XX asrdagi boshqaruv tizimiga muvofiq tuman yoki beklik o‘z navbatida amlokdorliklarga bo‘lingan (amlokdorlik termini arabcha “amlok”, ya’ni mulk so‘zining ko‘plikdagi shakli bo‘lib, dor – fors-tojikcha ega ma’nosini bildiradi).

XULOSA

Mang‘itlar sulolasi hukmronligining oxirgi davrida ma’muriy bo‘linish asosan viloyat (beklik) lardan iborat bo‘lib, ularning soni turlicha ko‘rsatiladi (27, 29, 32 ta). «Buxoro mamlakati yigirma sakkiz beklikka bo‘lingan edi. Shu qarorga muvofiq Nurota, Qorako‘l, Qaboqli, Chahorjo‘y, Karki, Burdoliq, Hisor, Dehnav, Qo‘rg‘on (tepa), Baljuvon, Ko‘lob, Kabodiyon, Kalif, Shahrisabz, Yakkabog‘, Kitob, G‘uzor, Qorategin, Boysun, Darvoz, Ruvshon bekliklari va mirliklariga bo‘linib, bu vazifalar qadim-qadim ayyomlardan buyon meros bo‘lib qolardi» - deb yozadi sobiq amir Said Olimxon.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи историей кварталов). М., Наука, 1976.
2. А.Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик йиллари. Т. 1992, 23-26 бет.
3. Қ.Усмонов, М.Содиқов, С.Бурҳонова. Ўзбекистон тарихи, Т., 2005, 174-176 бетлар.
4. Населённые пункты Бухарского эмирата (конец XIX – нач. XX вв.). Т. Университет. 2001, с.4, 10.
5. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Т. 1991. «Фан», 27-бет.